Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 32
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

BARQAROR RIVOJLANISHDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY MEXANIZMLARI: XITOY TAJRIBASI

Gavharshodbegim Muhammadi qizi Xolmatova*
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi
✉ kholmatova1g@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda barqaror rivojlanishni ta'minlashda kambag'allikni qisqartirishning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlari Xitoy Xalq Respublikasi misolida tahlil qilingan. Xitoyning maqsadli kambag'allikni qisqartirish siyosati, institutsional islohotlari hamda ijtimoiy himoya dasturlarining ahamiyati yoritilib, ushbu tajribadan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar

barqaror rivojlanish, kambag'allik, ijtimoiy siyosat, Xitoy, maqsadli kambag'allikni qisqartirish, davlat boshqaruvi, BRM.

DOI: 10.5281/zenodo.21743117

KIRISH

Kambag'allikni qisqartirish bugungi kunda xalqaro hamjamiyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarining birinchi maqsadi aynan barcha shakldagi kambag'allikka barham berishni nazarda tutadi. Mazkur maqsadga erishish davlatlarning samarali ijtimoiy siyosati, iqtisodiy islohotlari va institutsional boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

So'nggi qirq yil davomida Xitoy dunyodagi eng yirik kambag'allikni qisqartirish dasturini amalga oshirib, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan natijalarga erishdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, islohotlar boshlanganidan buyon 800 milliondan ortiq aholi mutlaq kambag'allikdan chiqarilgan. Bu natija nafaqat iqtisodiy o'sish, balki davlatning puxta ishlab chiqilgan ijtimoiy-siyosiy mexanizmlari bilan ham izohlanadi.

ASOSIY QISM

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy shartlaridan biri kambag'allikni qisqartirish hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM - SDGs) birinchi maqsadi aynan kambag'allikning barcha shakllariga barham berishni ko'zda tutadi. Shu bois kambag'allikni qisqartirish nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida ham e'tirof etiladi [3].

Kambag'allik zamonaviy ilmiy adabiyotlarda faqat daromadlarning yetarli emasligi bilan emas, balki insonning sifatli ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy himoya, bandlik va munosib turmush sharoitlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishi bilan ham tavsiflanadi. Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan "Imkoniyatlar yondashuvi" ("Capability Approach") nazariyasiga ko'ra, inson taraqqiyotining asosiy mezoni uning imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo'lib, kambag'allik ushbu imkoniyatlarning cheklanishi natijasida yuzaga keladi [1]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kambag'allikni qisqartirish siyosati

faqat iqtisodiy yordam ko‘rsatish bilangina cheklanmasdan, inson kapitalini rivojlantirishga ham xizmat qilishi lozim.

Xitoy Xalq Respublikasining kambag‘allikni qisqartirish borasidagi tajribasi aynan shu tamoyillarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. 1978-yilda boshlangan “Islohot va ochiqlik siyosati” mamlakat iqtisodiyotida tub burilish yasab, bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, sanoatni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali millionlab aholini kambag‘allikdan chiqarishga zamin yaratdi [2]. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 1978–2021-yillar davomida Xitoyda 800 milliondan ortiq aholi mutlaq kambag‘allikdan chiqarilgan bo‘lib, bu dunyo bo‘yicha kambag‘allikni qisqartirish natijalarining qariyb 70 foizini tashkil etadi [2].

2013-yildan boshlab Xitoyda “Maqsadli kambag‘allikni qisqartirish” (Targeted Poverty Alleviation) strategiyasi amalga oshirila boshlandi. Mazkur yondashuvning mohiyati kambag‘allikni umumiy dasturlar orqali emas, balki har bir hudud, har bir mahalla va har bir oila ehtiyojlarini alohida o‘rganish hamda ularga mos ravishda individual yordam mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat edi [4]. Natijada davlat mablag‘lari aniq ehtiyojmand qatlamlarga yo‘naltirildi va resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Mazkur siyosatni amalga oshirishning muhim omillaridan biri kuchli institutsional boshqaruv tizimining shakllantirilganidir. Xitoy Kommunistik partiyasi va Davlat kengashi kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yagona strategik siyosatni ishlab chiqdi, viloyat, tuman va qishloq darajasidagi davlat organlari esa ushbu siyosatning ijrosi uchun bevosita mas’ul etib belgilandi. Har bir hudud bo‘yicha kambag‘allikni kamaytirish ko‘rsatkichlari mahalliy rahbarlar faoliyatini baholash mezonlaridan biriga aylandi. Bunday vertikal boshqaruv tizimi siyosatning barcha hududlarda bir xil va samarali amalga oshirilishini ta’minladi [4].

Xitoy tajribasining yana bir muhim jihati kambag‘allikni qisqartirishning kompleks xarakterga ega bo‘lganidir. Davlat faqat moddiy yordam berish bilan cheklanib qolmadi. Aksincha, aholini barqaror daromad manbai bilan ta’minlash, kasb-hunarga o‘qitish, kichik biznesni rivojlantirish, imtiyozli kreditlar ajratish hamda yangi ish o‘rinlari yaratish orqali kambag‘allikning asosiy sabablarini bartaraf etishga e'tibor qaratildi [6]. Ayniqsa, qishloq hududlarida zamonaviy yo‘llar, elektr tarmoqlari, internet, ichimlik suvi va irrigatsiya tizimlarining rivojlantirilishi iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qildi.

Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar ham kambag‘allikni qisqartirishning muhim ijtimoiy mexanizmlaridan biri bo‘ldi. Kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun grantlar, stipendiyalar, bepul umumiy ta’lim hamda kasb-hunar ta’limi imkoniyatlari kengaytirildi. Shu bilan birga, tibbiy sug‘urta tizimi takomillashtirilib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak ko‘rsatildi [6]. Bu esa inson kapitalini rivojlantirish orqali uzoq muddatli kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qildi.

Kambag‘allikni qisqartirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham muhim o‘rin tutdi. Har bir kambag‘al oila bo‘yicha yagona elektron ma’lumotlar bazasi yaratildi, unda oilaning daromadi, mulkiy holati, bandligi va ijtimoiy yordamdan foydalanish holati muntazam yangilanib borildi. Ushbu raqamli monitoring tizimi davlat mablag‘larining shaffof va manzilli taqsimlanishini ta’minlab, korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qildi [6].

Xitoy modelining yana bir muhim jihati davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining samarali yo‘lga qo‘yilganidir. Yirik korxonalar kambag‘al hududlarga investitsiyalar kiritish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hamda aholini ish bilan ta’minlash orqali davlat siyosatini qo‘llab-quvvatladi. Oliy ta’lim muassasalari ilmiy maslahatlar va innovatsion texnologiyalar bilan ta’minladi, nodavlat notijorat tashkilotlari esa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha turli loyihalarni amalga oshirdi [2].

2021-yilda Xitoy mutlaq kambag‘allik bartaraf etilganini rasman e’lon qildi. Ushbu natija Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi eng muhim yutuqlardan biri sifatida e’tirof etildi [2; 3]. Shu bilan birga, mutaxassislar kambag‘allikka qayta tushib qolish xavfini oldini olish, qishloqlarni kompleks rivojlantirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash bo‘yicha ishlarni davom ettirish zarurligini ta’kidlamoqdalar [6].

Xitoy tajribasi O‘zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Mamlakatimizda so‘nggi yil-

larda kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, Xitoyning maqsadli yondashuvi, raqamli monitoring tizimi, hududiy rivojlanish dasturlari hamda inson kapitaliga investitsiya kiritish tajribasini milliy sharoitga moslashtirish kambag‘allikni qisqartirish siyosatining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin [5].

ILMIY YANGILIK

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. Xitoy Xalq Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish siyosati barqaror rivojlanish konsepsiyasi nuqtai nazaridan kompleks ijtimoiy-siyosiy mexanizm sifatida tahlil qilindi.
2. Xitoyning “Maqsadli kambag‘allikni qisqartirish” (Targeted Poverty Alleviation) modeli davlat boshqaruvi, hududiy rivojlanish, ijtimoiy himoya va raqamli monitoring tizimlarining o‘zaro integratsiyalashgan mexanizmi sifatida tizimlashtirildi.
3. Kambag‘allikni qisqartirishning institutsional samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar — markazlashgan strategik boshqaruv, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, manzilli ijtimoiy yordam va ko‘p sektorli hamkorlik yagona konseptual yondashuv asosida umumlashtirildi.
4. Xitoy tajribasi asosida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish siyosatini takomillashtirish uchun hududiy differensial yondashuv, raqamli monitoring tizimlari va inson kapitaliga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatni uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA

Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni qisqartirish barqaror rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, bu jarayonda davlatning faol ijtimoiy siyosati, samarali institutsional boshqaruv va manzilli yordam mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham “Maqsadli kambag‘allikni qisqartirish” konsepsiyasini takomillashtirish, hududlar kesimida differensial yondashuvni kengaytirish, raqamli monitoring tizimini rivojlantirish hamda ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Xitoy tajribasining ayrim elementlarini milliy sharoitga moslashtirish kambag‘allikni qisqartirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sen A. *Development as Freedom.* New York: Oxford University Press, 1999.
2. World Bank. *Poverty, Prosperity, and Planet Report 2024: Pathways Out of the Polycrisis.* Washington, DC: World Bank, 2024.
3. United Nations. *Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development.* New York: United Nations, 2015.
4. Si Szinping. *Qashshoqlikdan xalos bo‘lish* / Szinping, Si. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2024.
5. Ravallion M. *The Economics of Poverty: History, Measurement and Policy.* Oxford University Press, 2016.
6. National Administration of Rural Revitalization. *China’s Experience in Poverty Alleviation.* Beijing, 2022.